

KICHIK BIZNES KORXONALARI TUSHUNCHASI VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Omonboyev Abduvosit

Qo‘qon universiteti Andijon filiali HR departamenti boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu tezisda kichik biznes korxonalari tushunchasi, ularning asosiy belgilari va zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlari nafaqat iqtisodiy o‘rish va yalpi ichki mahsulotning o‘rishida, balki aholini band qilish, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, innovatsiyalarni joriy qilish, hududiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada xalqaro tajribalar bilan bir qatorda O‘zbekiston misolida kichik biznesning moliyaviy barqarorligi, huquqiy-me‘yoriy qo‘llab-quvvatlash choralari, davlat siyosati orqali yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, kichik biznesning bozorga tez moslashuvi, zamonaviy texnologiyalarga integratsiyasi va global inqiroz sharoitida iqtisodiy faollikni ushlab turishdagi o‘rni alohida ta‘kidlanadi. Tezis yakunida kichik biznesni yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, iqtisodiy o‘rish, moliyaviy barqarorlik, innovatsiya, tadbirkorlik, O‘zbekiston iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti, bandlik, huquqiy islohotlar.

Kichik biznes korxonalari tushunchasi va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu turdagi korxonalar nafaqat yirik ishlab chiqarish tizimlarini to‘ldiruvchi bo‘g‘in sifatida, balki mustaqil va strategik iqtisodiy subyektlar sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Kichik biznes deganda, xodimlar soni, yillik daromadi va bozorga ta‘sir darajasi bo‘yicha muayyan mezonlarga ega bo‘lgan kichik hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tushuniladi. Har bir mamlakatda ushbu mezonlar milliy iqtisodiy va institutsional xususiyatlarga asoslanib belgilanadi. Masalan, AQShda kichik biznes deb yillik daromadi 40 million AQSh dollarigacha bo‘lgan va 500 kishigacha ishchi ishlatadigan korxonalar tan olinadi, Yevropa Ittifoqida esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 50 million yevro va 250 nafar xodim bilan belgilanadi. O‘zbekistonda esa kichik biznes subyektlari yillik moliyaviy aylanma, ishchi soni va faoliyat sohasi asosida tasniflanadi. So‘nggi yillarda bu boradagi yondashuvlar yanada aniqlashtirilib, Prezident qarorlari bilan aniq mezonlar ishlab chiqilgan. Xususan, 2020-yildan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlarini belgilovchi yangi moliyaviy chegaralar joriy etildi.

Kichik biznes korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni nafaqat ularning soni bilan emas, balki funksional imkoniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, innovatsion faoliyati va yangi ish o‘rinlari yaratishdagi salohiyati bilan ham o‘lchanadi. Kichik bizneslar mamlakat yalpi ichki mahsulotining katta qismini shakllantiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va ichki bozorni importdan qisman mustaqil holga keltirishga xizmat qiladi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 600 mingdan oshdi va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56,3 foizni tashkil etdi. Bandlik ko‘rsatkichlari esa yanada yuqoriroq – 77,5 foizga yetgan. Bu degani, mamlakatdagi har 10 ish joyidan kamida 7 tasi kichik biznes sohasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa kichik biznesni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatadi.

Kichik biznesning yana bir muhim jihati – bu sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda tutgan o‘rnidir. Yirik korxonalar bozorga monopolistik ta‘sir ko‘rsata olgan holatlarda, ko‘plab kichik

biznes subyektlarining mavjudligi iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar tanlovini kengaytiradi, narxlarni barqarorlashtiradi va xizmatlar sifati ortishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik bizneslar o'zlarining moslashuvchanligi, tezkor qaror qabul qilish imkoniyati va yangiliklarga ochiqqligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar ularni bozor sharoitida tez o'zgarishlarga javob bera oladigan, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda ilg'or subyektlarga aylantiradi. Bugungi raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va internet platformalari zamonida kichik bizneslar o'z mahsulot va xizmatlarini xalqaro darajada ham targ'ib qilish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Misol uchun, kichik onlayn do'konlar, startaplar yoki frilans xizmat ko'rsatuvchi korxonalar xorijiy mijozlar bilan bemalol ishlay olmoqda.

Kichik bizneslar rivojlanishi orqali hududiy tengsizliklarning kamayishi, ichki migratsiya oqimlarining oldi olinishi va aholining farovonlik darajasining ko'tarilishi kuzatiladi. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarida kichik biznes korxonalarining faoliyat yuritishi aholi uchun yangi daromad manbalarini yaratadi, hududda iqtisodiy faollikni oshiradi va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga, kichik bizneslar aholining tadbirkorlik ruhini shakllantirish, o'z-o'zini band qilish ko'nikmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim vositaga aylanadi.

Moliyaviy barqarorlik – bu kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi, xarajat va daromadlar balansini saqlab turishi, foyda ko'rsatkichlarining musbat dinamikaga ega bo'lishi, tashqi moliyaviy ta'sirlarga chidamliligi kabi mezonlar bilan belgilanadi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali kichik bizneslar o'z faoliyatini uzoq muddat davomida barqaror olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular yangi investitsiyalarni jalb qilish, kreditlarni qaytarish, o'zini-o'zi moliyalashtirishga o'tish kabi bosqichlarga chiqishi mumkin. Bu esa ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, yangilanish va kengayish strategiyalarini amalga oshirishda muhim omilga aylanadi. Sof foydaning barqaror o'sishi, rentabellik darajasi va investitsion jozibadorlik kichik biznes korxonalari uchun eng asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik tashqi iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, global inqirozlar yoki ichki bozor notinchliklariga qarshi turish imkoniyatini ham oshiradi.

Kichik biznes korxonalarining global miqyosdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu soha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki eng ilg'or iqtisodiyotlarda ham asosiy bandlik manbasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, AQShda kichik bizneslar umumiy bandlikning 47 foizini, Yaponiyada 70 foizdan ortig'ini, Xitoyda esa 250 milliondan ortiq ish o'rinlarini ta'minlaydi. Ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa 60 foizga yaqin. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini hal qilish, moliyaviy, huquqiy va infratuzilmaviy jihatdan mustahkamlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Soliq yengilliklari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, huquqiy normalarning liberallashtirishi, raqamli xizmatlarning joriy etilishi bu yo'nalishda muhim qadamlar bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodchi A.Qodirovning fikricha, olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 2025-yilgacha 60 foizga yetishi kutilmoqda. 2024-yilning dastlabki choragida bu ko'rsatkich allaqachon 57,2 foizga yetgan. Bu esa sohaning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, kichik biznes korxonalari jamiyatda tadbirkorlik muhitini shakllantirish, aholining o'z kuchi bilan daromad topish imkoniyatini kengaytirish va iqtisodiy erkinlikni

kuchaytirish kabi funksiyalarni ham bajaradi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatining rag'batlantirilishi ijtimoiy tenglik va gender muvozanatining ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko'plab xotin-qizlar, ayniqsa qishloq joylarda, kichik ishlab chiqarish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida o'z bizneslarini yo'lga qo'yib, nafaqat o'z oilaviy daromadlarini ta'minlamoqda, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda. Bu holat kichik biznesni ijtimoiy inklyuzivlikni oshiruvchi vosita sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Kichik biznes korxonalarining rivojlanishi ilm-fan va texnologiyalar bilan ham chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda texnologik startaplar, IT xizmatlari, innovatsion yechimlar asosidagi kichik korxonalar soni ortib bormoqda. Ular ilmiy izlanishlar va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos vositachilik rolini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, universitetlar, ilmiy markazlar va innovatsion inkubatorlar bilan hamkorlikda kichik biznesni rivojlantirish modeli nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda keng tarqalgan. O'zbekistonda ham "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va boshqa muassasalar tomonidan yoshlar va innovatorlarni qo'llab-quvvatlash orqali kelajakda yuqori texnologiyali kichik korxonalar sonini oshirish rejalashtirilmoqda. Bu yo'l bilan nafaqat iqtisodiyot diversifikatsiyalanadi, balki zamonaviy raqamli bozor talablariga mos ishlab chiqarish va xizmatlar paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, kichik biznes korxonalari ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Kichik ishlab chiqarish subyektlari ko'pincha mahalliy resurslardan foydalanib, atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi. Shu sababli, ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga yo'naltirilgan kichik biznes loyihalari ekologik muammolarni kamaytirishga ham hissa qo'shadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ekologik tadbirkorlik (green entrepreneurship) kichik biznes doirasida faol rivojlanmoqda va ularni maxsus grantlar, soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlash tizimi shakllangan.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalari iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiyotning tiklanishida asosiy omilga aylanishi mumkin. Sababi, ular moslashuvchan, tavakkal darajasi past va tezlik bilan o'z faoliyat yo'nalishini o'zgartirish qobiliyatiga ega. Misol uchun, pandemiya davrida yirik korxonalar ko'plab muammolarga duch kelgan bo'lsa-da, kichik bizneslar onlayn xizmatlarga, yetkazib berish tizimlariga yoki yangi mahsulotlarga tez o'ta oldi. Shunday sharoitda kichik biznes nafaqat o'zini saqlab qoldi, balki jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda iqtisodiy faoliyatni davom ettirdi.

Davlat tomonidan kichik biznesni rag'batlantirishda huquqiy va institutsional asoslarning mavjudligi juda muhimdir. O'zbekiston hukumati tomonidan so'nggi yillarda bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishning soddalashtirilishi, litsenziya va ruxsatnoma olish tartiblarining avtomatlashtirilishi, soliq va bojxona tizimlarining raqamlashtirilishi kichik korxonalar uchun muhim qulayliklar yaratmoqda. Shu bilan birga, yangi ochilgan kichik korxonalarga bir necha yil davomida soliq yengilliklari berilishi, ularni subsidiyalash, grantlar ajratish va mikromoliyalashtirish tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash amaliyoti kengaymoqda. Bularning barchasi kichik biznes muhitining jozibadorligini oshiradi, tadbirkorlar sonining ko'payishiga xizmat qiladi va umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes korxonalari zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan ko'p funksiyali institut sifatida o'zining beqiyos o'rniga ega. Ular nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy, innovatsion, hududiy va ekologik yo'nalishlarda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, O'zbekistonda ham ushbu sohaga berilayotgan e'tibor kelajakda

iqtisodiy mustahkamlik, yangi texnologik yondashuvlar va ijtimoiy farovonlik asoslarini yaratishga xizmat qilishi shubhasiz. Kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro bozorga chiqishini ta'minlash esa davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, A. (2023). Kichik biznesni rivojlantirish va uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. OECD. (2020). OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship: Financing SMEs and Entrepreneurs 2020. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/fin_sme_ent-2020-en
3. World Bank. (2021). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions. <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>
4. Mahmudov, F. (2022). "Kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlari." Iqtisodiy tahlil jurnali, 7(2), 55–63.
5. European Commission. (2023). *Annual Report on European SMEs 2022/2023: SMEs sustainable growth in the digital era.* <https://single-market-economy.ec.europa.eu>

O'RTA VA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Kurbonov Baxodir Ergashevich

Qo'qon universiteti Andijon filiali ijtimoiy-gumanitar va pedagogika
fakulteti dekani, p.f.f.d., (PhD)

Niyozov Azizillo Mirzoxidjon o'g'li

Iqtisodiyot yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

Abstract. Ushbu maqolada O'zbekistonda o'rta va kichik biznesni rivojlantirishda soliq imtiyozlarining roli va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlili asosida soliq imtiyozlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq imtiyozlari kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, ularning samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuvlar talab etiladi. Maqolada soliq imtiyozlarining ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Key words: o'rta va kichik biznes, soliq imtiyozlari, iqtisodiy rivojlanish, soliq siyosati, imtiyozlar samaradorligi.

Introduction

O'rta va kichik biznes (O'KB) mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, O'KB har qanday iqtisodiyotning poydevori bo'lib, bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulotning 50-60 foizi aynan shu sektor hissasiga to'g'ri keladi [1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda O'KB rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-459-son qarorida ham mamlakat iqtisodiyotida O'KB rolini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2].